

BOLALAR SHOIRI QUDDUS MUHAMMADIY SHE'RLARINING USLUBIYATI

Jomolov Qosimxon Rasulxon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada butun umrini, ijodini kichkintoy bolajonlarning katta adabiyotiga bag'ishlagan Quddus Muhamadiy asarlarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rniga bag'ishlangan. Uning asarlarida ifodalangan uslubiy figuralarning asar mazmundorligini oshirishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Bolalar adabiyoti, she'r, doston-ertak, samimiyat, lirik she'rlar, she'riy janr, metafora, jonlantirish, qofiyadosh, so'zlar, shaxslantirish, mubolag'a.*

ABSTRACT

In this article, the place of the works of Quddus Muhamadi, who devoted his whole life and creativity to the great literature of small children, is devoted to the educational process. The role of stylistic figures expressed in his works in increasing the content of the work is discussed.

Key words: *Children's literature, poetry, fairy tale, sincerity, lyrical poems, poetic genre, metaphor, revitalization, rhyming, words, etc., personalization, exaggeration.*

KIRISH

Bolalarning sevimli shoiri, butun umrini kichkintoylarning adabiyotiga bag'ishlagan, bir-biridan sermazmun she'rlar yaratgan bolalar adabiyotining yirik nomoyandalaridan biri Quddus Muhammadiydir. Uning ijodiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona – Vatanga muhabbat, a'lo o'qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo'lishga da'vat etish, fan va texnikani o'rganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi. Quddus Muhammadiy uchun mavzuning chegarasi yo'q,- deb yozgan edi. S.Mamajonov, – bolalarning ruhiy kechinmasidan tortib to hayvon-parrandalargacha hamma-hammasi to'g'risida yozadi...¹ Voqeaviylik, syujetlilik serbo'yoqlilik, hatto shamolning ham tovushini bera olishlik uning she'rlariga kuch bag'ishlaydi". Shoir kichkintoylarning tizginsiz savollari ularning odam va olam sirlarini bilishga bo'lgan qiziqish-intilishlari natijasi ekanligini teran idrok etadi.

¹ <https://doi.org/10.5281/zenodo.6528463>

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Uslubiy figuralar - matnning o'quvchiga ta'sirini kuchaytiruvchi, she'riy nutqning maxsus obrazli tuzilishini tashkil etuvchi she'riy til elementlari hisoblanadi. Shoir ushbu elementlardan mohirona foydalanib talaygina asarlar yaratgan. Stilistik figuralar qadimgi davrlardan beri ma'lum bo'lib, ular birinchi marta Aristotelning asarlarida ("Poetika", "Ritorika") tasvirlangan. Stilistik figuralardan ajoyib jilo berilgan shoirning ayrim she'rlarini tahlil qilib chiqamiz. "Bahor keldi" she'rini oladigan bo'lsak unda shunday misralar bor:

Har narsada o'zgarish,
Erib, oqib jo'nar qish.
Har yoqda yashnar turmush,
O'rik gulladi kumush,
Mehnat bahori keldi.
Bezanar maktab bog'i
Gulga to'lib quchog'i.
Toshar hayot irmog'i,
Maktab dam olar chog'i,
O'quvchi bahor keldi.²

Ushbu misralarda o'zgarish-qish, turmush-kumush, bog'-quchog', irmog'-chog' kabi qofiyadosh so'zlar qo'llanilgan. Erib oqib qishning jo'nashi, bahor kelishi, maktab bog'ining bezanishi, quchog'i gullarga to'lishi, maktabni dam olishi, degan jumalalarda badiiy adabiyotning tashxis-jonlantirish san'ati qo'llangan. Odatda quchog' deya inson ikala qo'l bilan to'laligicha ushlasa bo'ladigan narsa bir quchoq deb tushunilsa, shoir ushbu misrada maktabning chiroyli hovlisini va bo'g'ini uning quchogi deya ta'riflash orqali ma'no ko'chishining metafora turini qo'llayapti. Nutqda obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib ma'no ko'chishi metafora deyiladi. Bahor fasli insonning yoshligiga tashbeh qilinganligi uchun, ushbu fasl har yili sho'x-shodon bo'lib kelishi uchun o'quvchi bahor keldi deya ta'rif berilyapti.

Ko'klamjon
Bir kun qishda O'ktamjon,
Qaydasan deb Ko'klamjon
Chiqibti dala boqqa,
Termulibdi har yoqqa.
Chaqiribdi Ko'klamni
Yasantir deb o'lkamni.

² Q. Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob. Yosh gvardiya nashriyoti, 1977.

Ko'klam, Ko'klam, Ko'klamjon!

Qayoqdasan, ko'rkamjon?³

Quydingi she'riy parchada uslubiy figuralarning anafora va ritorik so'roq kabi turlaridan foydalanilgan. She'rdagi badiiy obraz O'ktamjon isimli bola dala boqqa chiqib, bahor faslini chaqirib, unga his hayajon bilan murojat qilmoqda. O'ktamjonning murojatiga Ko'klamoy shunday javob bermoqda:

Ona yerda yotibman,

Kuchlar yeg'ayotibman.

Kuch olib yerdan, o'rtoq,

To'yib dam olib, ko'proq

Mart oyida turaman.

Olam bo'ylab yuraman,

Seni borib ko'raman,

Guldastalar beraman.

Bu misralarda shoir Ko'klamoyini jonlantirib, uni tilga kiritib she'rga yanada ma'no va mazmun baxsh etmoqda.

Quyosh-govmish sigirim,

Yer yo'ldoshim, huzurim,

Yemas ichmas, polvonim,

Charchamas pahlavonim.

Ushbu misralarni izohlash, metafora usuliga juda chiroyli misol desak bo'ladi. Shoir quyoshni hammaga foydasi tegishi, butun olam undan bahramand bo'lganligi uchun uni ser sutli sigirga o'xshatyapti. Bilamizki, quyosh bo'lmasa butun olam zulmatga aylanadi, yerda hech qanday giyoh unmaydi. Yerga esa butun borliqni ko'tarib turgani uchun polvon deb maqtov bermoqda. "Qanotli do'stlar" she'ri:

Uchib keldi har yondan

Qadrdon qushlar.

Ko'chib keldi yiroqdan mehribon qushlar.

Sog'inganmiz, kelinglar

Ko'zlari munchoq.

Shoir qushlarning ko'zlari dum-dumaloq qora bo'lganligi uchun ularni munchoqqa o'xshatib ta'rif laydi. Ushbu o'xshatish metafora usulida ma'no ko'chishiga misol bo'la oladi.

Bog'da konsert boshlanar:

Drijyor -laylak.

Tumshug'i qo'sh nog'ora,

³ Q. Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob. Yosh gvardiya nashriyoti 1977.

Chalar sho‘x tak-tak.⁴

Drijorlarning uzun tayog‘i bo‘ladi, to‘g‘rimi. Shoir laylakning uzun tumshug‘i borligi uchun, tumshog‘ini drijorning tayog‘iga o‘xshatib, unga shu kasbni berdi. Bog‘da uchib kelgan qushlarning sayrab konsert qo‘yishiga laylakni boshchi qilib qo‘ydi. Bu o‘rinda shaxslantirish, metafora qo‘llangan.

O‘yin tushdi dikkillab,
Chittak shox tashlab.
Avjga chiqdi rosa ham,
Uchib, irg‘ishlab.

Chittak juda tez harakat qiluvchi mitti qush. Uning chiroyli harakatini dikkillab o‘yin tushishga tashbeh qilmoqda. O‘yinga tushish insonlarga hos harakat bo‘lganligi uchun ushbu o‘rinda shaxslantirish, mubolag‘a san‘atlari qo‘llanmoqda.

Bulbul bilan qaldirg‘och,
Oldi sho‘x nayin.
Ku-kulab musicha
Tortdi surnayin.
Qizilishton osilib
Xifchinda dorboz.

Qizilishtonning pastki qismi qizil rangdaligi uchun bu qushga shunday nom berilgan. Uni elektr simlariga qo‘nib turishini dorbozning dorda turganiga o‘xshatilyapti. Bu misralarni shaxslantirish va metaforaga misol qilishimiz mumkin.

Ko‘kka solib arg‘imchoq
Uchar turna, g‘oz.

Turna bilan g‘ozlar ko‘kda bir qator bo‘lib uchadilar. Ularning tizilib uchishi huddi arg‘imchoqga o‘xshaydi. Ushbu satrlarda o‘xshashlik asosida ma‘no ko‘chishi ya‘ni metafora qo‘llanilgan. Masxaraboz poishak parvoz — «pup-pup»

Konsert juda qizidi,
Qushchalar tup-tup,
Uchib kelar har yoqdan
Qadrdon qushlar.
Ko‘chib keldi yiroqdan
Mehribon qushlar .

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki ushbu she‘rlar ajoyib poetik obrazlar orqali bolalarcha beg‘uborlik bilan yaratilganligi uchun ularni ilk marotaba o‘qib turgan

⁴ Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti, 1977.

inson qalbida bolalikning ilk xotiralari, go‘zal ona tabiat, borliqdagi butun jonzotlar ko‘z oldida gavdalanadi. Shoirning she‘rlarini maroq bilan, osongina yod olsa bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ona vatanga, tabiatga va she‘riyatga bo‘lgan muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 1-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1974.
2. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1977.
3. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1977.
4. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va A.Avloniy ijodi.-T: Fan, 2004.
5. Bolalar adabiyoti” (O‘qituvchilar nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan.
6. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va folklor" O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent.
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6528463>
8. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK ADABIYOTDA TAZKIRA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 29-32.
9. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1318-1322.